

YUZ PARVARISHI VOSITALARINING KO'RSATMALARI TARJIMASI

Nurmatova Gulsanamxon

*Alisher Navo'i nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universitrtining tarjima nazariyasi va
amaliyoti fakulteti 4-bosqich talabasi.
gulinurmatova10@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yuz parvarishi vositalari ko'rsatmalarini tarjima qilish jarayonida uchraydigan leksik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda kosmetik mahsulotlarga oid terminlar, marketing uslubidagi so'zlar hamda madaniy jihatdan farqlanuvchi iboralar tarjimasining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada tarjimonlar uchun muhim bo'lgan leksik ekvivalent tanlash, semantik aniqlikni saqlash va madaniy neytrallikka e'tibor qaratish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, leksik muammo, kosmetika, yuz parvarishi, termin, madaniy tafovut, marketing tili.*

Globalashuv sharoitida kosmetika mahsulotlari va yuz parvarishi vositalarining xalqaro bozorlarda keng tarqalishi natijasida ularning tarkibi, qo'llanilishi va ehtiyot choralari haqidagi ko'rsatmalarni turli tillarga tarjima qilish zarurati ortib bormoqda. Bunday matnlar ko'pincha texnik, ilmiy va reklama uslublarining uyg'unlashgan shaklida bo'ladi. Shu sababli, ularni tarjima qilish jarayonida leksik darajadagi qiyinchiliklar — termin tanlash, ma'no aniqligi va madaniy moslik masalalari — tarjimon oldida muhim vazifa sifatida turadi.

Ko'rsatmalarda ishlatiladigan so'zlarning bir qismi kimyoviy terminlar, ikkinchisi esa iste'molchining e'tiborini tortishga xizmat qiluvchi marketing ifodalaridir. Ularning to'g'ri tarjima qilinmasligi mahsulot haqida noto'g'ri tushuncha shakllanishiga yoki semantik noaniqliklarga sabab bo'lishi mumkin va yomon hollarda bir qancha nojo'ya teri ta'siriga olib kelishi mumkin. Shu bois mazkur mavzuni leksik jihatdan o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Yuz parvarishi vositalari ko'rsatmalarida “hyaluronic acid”, “niacinamide”, “salicylic acid”, “retinol” kabi terminlar keng qo'llaniladi. Ular ko'pincha transliteratsiya yo'li bilan “gialuron kislotasi”, “niatsinamid” kabi shaklda tarjima qilinadi. Ammo bunday terminlar iste'molchiga notanish bo'lishi mumkin. Shu sababli, tarjimon qo'shimcha izoh berish shaklidan foydalanishi maqsadga muvofiq: “niatsinamid (vitamin B3) ni o'z ichiga oladi”, “hyaluronic acid —gialuron kislotasi (tabiiy namlatiruvchi komponent)”, “salicylic acid —salitsil kislotasi (beta-gidroksi kislotasi”, BHA (iste'molchilar orasida keng tarqalgan nomi)”, “retinol —retinol(A

vitamin hosilasi), azelaic acid — azelain kislotasi (dikarboksilik kislotasi)” shakllari maquldir.

Ko‘rsatmalarda uchraydigan “brightening”, “glowing”, “radiant”, “anti-aging” kabi so‘zlar ko‘proq reklama maqsadida ishlatiladi. Bularni so‘zma-so‘z tarjima qilish (“yorituvchi”, “nurlantiruvchi”) semantik jihatdan noaniq eshitiladi. Shu bois ularni “teri rangini oqartiruvchi”, “teri rangiga yorqinlik beruvchi”, “teri qarishini sekinlashtiruvchi yoki oldini oluvchi” kabi tabiiy variantlarda berish lozim. Chunki “brighten” fe’li bir tonga ocharmoq ma’nosini beradi. Bunda mahsulot teriga surilganda, teridagi tug‘ruqdan keyingi dog‘lar va ugriidan keyin qolgan dog‘lar xiralashadi va asta-sekin yo‘qoladi. “Glow” fe’liga keladigan bo‘lsak, ko‘proq porlash ma’nosini beradi, lekin bunda ma’no to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatilmagan. Ingliz tilida “glass skin (shisha kabi tekkis yuzali)” iborasi mavjud bo‘lib, glow so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘sha iboraga ishora qiladi va oxirgi “anti-aging” soziga to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘zma-so‘z tarjimada “qarishga qarshi” deya tarjima qilinadi, lekin shundan tarkibga ega mahsulotlar amalda qarish jarayonini sekinlashtiradi, xolos. “Qarishga qarshi” so‘zi iste’molchida tushunmovchilik tug‘dirmasligi uchun “teri qarishini sekinlashtiruvchi yoki oldini oluvchi” so‘zidan foydalangan maquldir. Chunki mahsulot yuzga surilgan keyin, teridagi ajinlarni yo‘qotishga yordam beradi va aniqroq ma’no tashiydi. “Qarishga qarshi” so‘zini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunib olgan iste’molchilar— mahsulot rosdan ham qarishni to‘xtatadi deya oy‘lashlari va oxir-oqibat natija kutilgandek bovlb chiqmagan taqdirda tushkunlikka tushishlari, mahsulatlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyaga nisbatan ishinchlari yo‘qolishi mumkin.

Ishlatishda ehtiyot bo‘lishi kerak bo‘lgan kislota bor va ular haqida ham qisqacha tushuntirish berilishi kekak. Bular retinol —retinol(A vitamin hosilasi). Bu kislota teri hujayralari yangilanishini tezlashtiradi, ajinlarni kamaytiradi, teri silliqqligini oshiradi. Shu bilan birga, ta’sirchan terida qizarish va yuz terisi qurishi holatlarini chaqirishi mumkin, shuning uchun asta-sekin qo‘llanilishi lozim. Misol uchun, vitamin C(askorbin kislotasi) bir o‘zi ishlatilgan holda, antioksidant himoya: erkin radikallar (quyosh, stress, iflos havo) ta’siridan hujayralarni himoya qiladi, kollagen ishlab chiqarishni oshiradi: ajinlarni kamaytiradi, terini silliqqlashtiradi, elastiklikni oshiradi, pigmentatsiyani kamaytiradi: melanin ishlab chiqarilishini to‘xtatadi, qora dog‘larni va akne izlarini tiniqlashtiradi, teri rangini tiniqlashtiradi: yuzni “yorqin” va sog‘lom ko‘rsatadi, sarg‘ish yoki xiralikni kamaytiradi. Odatda yog‘li yoki aknega moyil teri uchun ishlatiladi. Ammo, retinol bilan bir kunda ishlatilinsa, teriga nojo‘ya ta’sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, salicylic acid —salitsil kislotasi (beta-gidroksi kislotasi, BHA) teri yuzasidagi o‘lik hujayralarni eritadi, teshiklarni tozalaydi, yallig‘lanishga qarshi va aknega qarshi ta’sir ko‘rsatadi va vitamin C kabi retinol ishlatilmaydi. Retinol juda faol (kuchli) ingredient bo‘lgani uchun uni faqat yumshatuvchi, tinchlantiruvchi

va namlovchi tarkiblar bilan birga ishlatish tavsiya etiladi. Misol uchun, panthenol (Vitamin B5) tinchlantiradi, regeneratsiyani tezlashtiradi, qizarish va quruqlikni kamaytiradi, centella Asiatica (Gotu Kola / Cica) tinchlantiruvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi, retinolning qichishish yoki achish ta'sirini kamaytiradi, ceramide kompleksi teri to'siq qavatini mustahkamlaydi, suv yo'qotilishini oldini oladi, retinolni xavfsizroq qiladi. Ko'rsatmalardagi "directions", "caution", "results may vary" kabi iboralarni tarjima qilishda ham ehtiyotkorlik zarur. Masalan, "results may vary" so'zi "natijalar teri turiga qarab farq qilishi mumkin" tarzida yumshoq ifoda bilan berilishi maqsadga muvofiqdir.

RETINOL: WHAT TO USE	
CAN BE USED TOGETHER	SHOULD NOT BE USED TOGETHER
 Hyaluronic Acid Moisturizes, prevents dryness	 AHA Glycolic, Lactic acid
 Niacinamide Strengthens skin barrier, calms	 BHA Salicylic acid
 Panthenol Soothes, promotes healing	 Azelaic acid Userun
 Centella Asiatica Calms redness and irritation	 Vitamin C Ascorbic acid
 Ceramide complex Strengthens skin barrier	

Rasm. Retinol kislotalarining boshqa kislotalar bilan birga ishlashi.

"Whitening" kabi atamalar madaniyatlararo kontekstda turlicha talqin qilinishi bilan ajralib turadi. G'arb davlatlarida bu so'z ko'pincha salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin, Sharq mamlakatlarida esa u ijobiy, ya'ni "teri rangini yoritish" yoki "go'zallik mezonlariga yaqinlashtirish" ma'nosida qo'llanadi (Newmark, 1988; Baker, 2018). Shu sababli tarjimon marketing matnlari yoki kosmetik vositalar yorliqlarida madaniy jihatdan neytral ekvivalentni tanlashi lozim. Masalan, "whitening" o'rniga "teri rangini bir tekislashtiruvchi" kabi neytral variantni qo'llash mazmunni noto'g'ri talqin qilinishidan himoya qiladi. Kosmetika mahsulotlari bo'yicha ko'rsatmalarni tarjima qilishda aniqlik ayniqsa muhimdir. Masalan, ingliz tilidagi "Apply evenly to clean skin twice daily" iborasi ko'pincha "Tozalangan teriga teng surting, kuniga ikki marta qo'llang" tarzida tarjima qilinadi. Ammo "evenly" so'zi nafaqat "teng", balki

“bir xil qalinlikda, bir maromda” qo‘llash ma’nosini bildiradi (Crystal, 2008). Shu bois mazmunga yaqinroq variant quyidagicha bo‘ladi:

“Tozalangan teriga bir xil qalinlikda surting; kuniga ikki marta qo‘llang.”

Bu ko‘rinish ko‘rsatmaning texnologik mazmunini yanada aniqroq yoritadi.

Xulosa

Yuz parvarishi vositalariga oid ko‘rsatmalarni tarjima qilish jarayonida leksik muammolar, asosan, sohaga oid terminologiya, marketing ifodalari va madaniy tafovutlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarjimon nafaqat til tizimini, balki kosmetologiya terminlari, xalqaro marketing strategiyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan yetarli bilimga ega bo‘lishi zarur (Komissarov, 1990; Latyshev, 2001).

To‘g‘ri tanlangan leksik birliklar iste’molchiga aniq, ishonchli va madaniy jihatdan mos axborot yetkazish imkonini beradi. Shu sababli bunday matnlarni tarjima qilishda semantik aniqlik, madaniy neytrallik va terminologik izchillikka qat’iy rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komissarov, V.N. — tarjima nazariyasi bo‘yicha klassik va ishonchli manba.
2. Newmark, P. (1988) — xalqaro darajada tan olingan fundamental qo‘llanma.
3. Baker, M. (2018) — zamonaviy va nufuzli manba.
4. Latyshev, L.K. — tarjima texnologiyasi bo‘yicha ishonchli nazariy manba.
5. Vinay & Darbelnet (1995) — tarjima metodologiyasi klassikasi.
6. Nida & Taber (2003) — dinamik ekvivalentlik nazariyasining asosiy manbasi.
7. Crystal, D. (2008) — lingvistika bo‘yicha nufuzli lug‘at.
8. Отахорова, Н. (2019) — O‘zbekistondagi nufuzli ilmiy qo‘llanma.
9. Назарова, Г. (2020) — tarjima lingvistikasiga oid zamonaviy mahalliy manba.
10. EU Cosmetic Products Regulation (EC) No 1223/2009 — kosmetika sohasida amal qiluvchi asosiy yevropa reglamenti, ishonchliligi juda yuqori.